



ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA BERILGAN MASHQLAR ORQALI O'QUVCHILAR NUTQIDA UCHRAYDIGAN XATOLIKLARNI TAHLIL QILISH

Dilmurod Teshaboyev

FarDU, filologiya fanlari doktori (DSc)

Dilshoda Jo'raqo'ziyeva

FarDU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667863>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2025

Accepted: 05th June 2025

Published: 15th June 2025

KEYWORDS

ona tili, savodxonlik darsliklari, mashqlar, nutqiy xatolar, nutqni rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim, til madaniyati, didaktik materiallar, nutqiy malaka, metodik yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili savodxonligi darsliklarida berilgan mashqlar orqali o'quvchilar nutqida uchraydigan xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Nutqiy xatolarni tuzatishga yo'naltirilgan mashqlar turlari, ularning didaktik ahamiyati va amaliy samaradorligi yoritilgan.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish, ularning fikrini aniq, izchil va mantiqan ifoda eta olish malakasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, ona tili savodxonligi darslarida berilgan mashqlar orqali o'quvchilarda uchraydigan nutqiy xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ona tili darsliklarida mavjud mashq turlarining tahlili, ularning o'quvchilar nutqiga ta'siri, shuningdek, xatoliklarni kamaytirishdagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Maqolaning maqsadi – savodxonlik darslarida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va nutqiy xatolarni kamaytirishga xizmat qiladigan samarali usullarni aniqlashdir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida ona tili fanining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda to'g'ri, mantiqiy va grammatik jihatdan aniq nutqni shakllantirishdir. Bu vazifani amalga oshirishda "Yangi avlod" deb ataluvchi ona tili savodxonligi darsliklari muhim o'rin tutadi. Mazkur darsliklarda keltirilgan mashqlar orqali o'quvchilarning tilga nisbatan ongli munosabati, grammatik tushunchalarni o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu mashqlar yordamida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolarni aniqlab, ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish mumkin.

Yangi avlod darsliklari interaktiv yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga undaydi. Yangi avlod darsliklari, xususan, 1–4-sinflar uchun mo'ljallangan "Ona tili va savodxonlik" darsliklari o'quvchilarni to'g'ri va aniq ifodalay olish, grammatik va stilistik jihatdan to'g'ri gap tuza olishga o'rgatishga qaratilgan. Ushbu darsliklarda berilgan mashq va topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot jarayonida 1–4-sinf "Ona tili va savodxonlik" darsliklaridagi quyidagi topshiriqlar asosida o'quvchilar nutqi tahlil qilindi:

- Gap tuzish mashqlari

- Matn asosida savollarga javob yozish
- Gaplarni to'ldirish
- Gapdagi ortiqcha yoki keraksiz so'zlarni toppish
- Murakkab gaplarni sodda gaplarga ajratish topshiriqlari

Darslikdagi mashqlarning ahamiyati. Yangi darsliklar sintaktik tuzilmalarning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi quyidagi usullardan foydalanadi:

- Ko'rgazmali misollar bilan ishlash
- Yarim tayyor gaplarni to'ldirish
- Tuzilgan matnni tahlil qilish va to'g'rilash
- Nutqiy muloqot mashqlari

Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar xatolarni tahlil qilish va to'g'rilash orqali to'g'ri gap tuzish malakasini rivojlantiradi. Yangi avlod "Ona tili va savodxonlik" darsliklari nafaqat grammatik bilimlarni berishga, balki o'quvchilarning mustaqil tahlil qilish va to'g'ri nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu darsliklardagi topshiriqlardan foydalanib, o'quvchilarning sintaktik hamda morfologik xatolarini tahlil qilish samarali natijalar beradi.

Ona tili va o'qish kitoblarida berilgan mashqlar:

- Bolalar uchun qiziq bo'lgan va erkin fikrlash bilan bog'langan hikoyalar negiziga asoslanadi;
- Nutqni kundalik hayotda qay tartibda foydalanilishiga qaratilgan;
- So'z hamda gap shaklini tahlil qilish malakalarini shakllantiradi;
- Bolalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ona tili darsliklaridagi mashqlarda o'quvchilar nutqida uchraydigan morfologik hamda sintaktik xatolarni tuzatishga yo'naltirilgan topshiriqlar mavjud. Masalan, so'z shakllarini to'g'ri yasash, fe'l zamonlarini ajratish, egalik qo'shimchalarini aniqlashga doir mashqlar.

Tilimiz haqida so'zlovchi kitobni tahlil qilishning ahamiyati katta:

Berilgan topshiriqlar yuzasidan bolalarning yozma va og'zaki nutqini kuzatish orqali ayrim xatoliklar tizimini aniqlash mumkin. Bu esa:

- a) Darsliklarning samaradorligini baholashga;
- b) O'quvchilarning individual yondashuvga muhtoj jihatlarini aniqlashga;
- c) O'qituvchi uchun tuzatish ishlari yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi.

2-sinf o'quvchilari nutqidagi morfologik xatolarni tahlil qilish.

2-sinf o'quvchilarining nutqida morfologik xatolar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

- a) So'z yasovchi va grammatik qo'shimchalarni farqlamaslik. Ushbu so'z yasovchi qo'shimchalarni o'rganish bo'yicha mashqlar Ona tili (2023-yil) 2-sinf darsligining 3-qismida "Yangi so'zlarning qanday paydo bo'lishini tushunib olamiz" bo'limida keltirib o'tilgan.

Darslikda berilgan 4-mashqni tahlil qiladigan bo'lsak, bunda berilgan matndagi qora harfdagi so'zlarni alohida ko'chirib olamiz va ularning qaysi 2 ta so'zning qo'shilishidan hosil bo'layotganin aniqlaymiz:

Boy+chechak=boychechak

Semiz+o't=semizo't

Ko'k+somsa=ko'ksomsa

- b) Fe'l zamonlarini tushunmaslik. Zamon tushunchasi 3-4-sinflarda o'rgatiladi va o'quvchilarga har uchala zamon to'g'risida ma'lumot berib o'tiladi.

- c) Egalik qo'shimchalarini noto'g'ri ishlatish. Bu holat, ayniqsa, 1-2sinflarda ko'p kuzatiladi. 3-4-sinfga borganda bu xatolar ancha kamayadi. Chunki bu mavzu ushbu sinf darsliklarida yoritilgan. O'quvchilarga 4-sinf darsligida berilgan topshiriq quyidagicha:

Nuqtalar o'rniga mos egalik qo'shimchalarini qo'ying:

Gulnozaning dada... uyga keldi.

O'quvchilar ko'p holatlarda ushbu misolga III shaxs birlik egalik qo'shimchasini olishning o'rniga, I shaxs birlik egalik qo'shimchasini oladilar.

Ot va fe'l turlarining morfologik xususiyatlarini to'liq o'zlashtirmaslik. Ot va fe'l so'z turkumlari shaxs va narsaning nomi va harakatini bildirgan so'zlar mavzusi ostida 1-sinf Ona tili darsliklarigayoq kiritilgan bo'lishiga qaramay, o'quvchilar ularning morfologik xususiyatlari yuzasidan xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Quyidagi mashq turlari orqali morfologik xatolarni tuzatish ko'zda tutilgan:

- So'z turkumlariga ajratish mashqlari: har bir so'z turini belgilash, masalan: ot, sifat, fe'l.
- So'z shakllarini yasash: berilgan so'zga turli qo'shimchalar qo'shish orqali yangi shakllar yaratish.

- Fe'l zamonlari: "Men o'qidim", "Men o'qiyman", "Men o'qiyapman" kabi fe'llarni solishtirish.

- Egalik qo'shimchasi: "Mening kitobim", "Senining rasmlaring", "Ularning uyiga" kabi birikmalarni shakllantirish.

- So'z yasalishi: Asos va qo'shimchani ajratish: o'qituvchi = o'qit + uvchi

2-sinf o'quvchilari nutqini tahlil qilishda quyidagilarni qo'llash tavsiya etiladi:

- Diktant ishlari: Matndan keyin xatoliklarni aniqlash va tuzatish
- Og'zaki nutq tahlili: Hikoya qilish jarayonida ishlatilgan morfologik shakllarni yozib olish.
- Mashq daftarlarini tahlil qilish: Topshiriqlarni bajarish davomida qilingan xatolarni aniqlash.
- Jadval asosida tahlil: Har bir o'quvchining xato turlarini va sonini ro'yxatga olish.

Darslik asosidagi tahliliy misol:

Darslik: Ona tili savodxonligi (2-sinf, 2-chorak)

Mashq: 4-mashq – "Berilgan so'zlardan to'g'ri shakl yasab gap tuzing."

O'quvchi javobi: Bolalarlar bog'ga bordi.

Tahlil: Ko'plik qo'shimchasi ikki marta ishlatilgan – bu morfologik xato. O'quvchi so'z yasash qoidalarini hali to'liq o'zlashtirmagan.

To'g'rilangan shakl: Bolalar bog'ga bordi.

Yondashuv: Mashqni bajarganidan so'ng, o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beriladi:

- So'zga qo'shimchani to'g'ri qo'shing.

- Har bir so'z nechanchi shaxs, qanday son va zamonda ekanini ayting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduqudusov O.A. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari (metodik qo'llanma) – Toshkent, 2011.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2003.
3. Azimov Y.Y, Qo'ldoshev R.A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qo'llanma). – Buxoro, 2020. – 130 b.
4. Begmatov E., Tursunqulov M. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
5. Almatov T., Yadgarov Q.M., Almatov Sh. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion, pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo'llanma). – Toshkent, 2013.
6. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova S., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik) – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
7. Gulomov A.K. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari doktori diss. – Toshkent, 1991.